



BUYUK IPAK YO'LINING MARKAZIY OSIYO
SHAHARLARIDAGI TARAQQIYOT TUTGAN O'RNI

Hakimov Sherzod

Shotirov Latif

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabalari

hsherzod589@gmail.com

latifshotirov@gmail.com

Abstract: This article discusses the historical development of the Great Silk Road, its origins, geographical position, and its significance in trade. It explores how the cities and states surrounding the Silk Road benefitted from its presence and developed over time. The article also provides insights into various scholars' perspectives and their research on the Silk Road.

Key words: The Great Silk Road, Mediterranean, A. R. Muhammadjonov, N. Tukhliyev, Chang'an, Venice, Sogdian merchants, Zhang Qian, "The Silk Road - the path of dialogue."

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixan asrlar davomida shakllanib borgan Buyuk ipak yo'li, uning kelib chiqish tarixi, joylashuv o'рни hamda bu yo'lining savdodagi ahamiyat haqida so'z boradi. Buyuk ipak yo'li atrofidagi shaharlar va davlatlarning rivoji uchun qanchalik ahamiyatli bo'lgani haqida fikr yuritiladi. Hamda Bu yo'l haqidagi turli olimlarning turlicha fikrlari olib borgan izlanishlari haqida ham ma'lumotlar bor.



Kalit soʻzlar: Buyuk ipak yoʻli, Oʻrta Yer dengizi A. R. Muhammadjonov, N. Toʻxliyev, Chanan, Venetsiya, sugʻd savdogarlari, Chjan Syan, "Ipak yoʻli - muloqot yoʻli".

Kirish. Buyuk ipak yoʻli insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va Gʻarb dunyosini birbiriga bogʻladi. Bu yoʻl xalqaro, davlatlararo savdo-sotiq yoʻli edi. Buyuk ipak yoʻli oʻtgan yoʻnalishda mavjud davlatlarda turlicha qonun-qoidalar hukmron boigan. Taʼkidlash joizki, xalqaro savdo-sotiqning tashabbuskori ham xalq edi.¹

Muhokama va natijalar. Oʻzbek olimlari Buyuk ipak yoʻli haqida yozar ekanlar, ilk bor savdo karvonlari Sharqdan Gʻarbga qarab qachon yoʻlga chiqqanligi, yoʻlning tarmoq va yoʻnalishlari, masofasi haqida fikr yuritadilar. Arxeolog olim A.R.Muhammadjonov Buyuk ipak yoʻli Uzoq Sharqdan Oʻrta Osiyo va Eron orqali Oʻrta yer dengizigacha choʻzilganligini, bu yoʻl Xitoyning qadimiy poytaxti Chanan (Shanan) shahridan Italiyaning Venetsiyasigacha borib yetgan masofadagi yoʻl ekanligini, ilk bor savdo karvonlari mil.avv. II asrning ikkinchi yarmida Xitoydan Gʻarbga qarab yoʻlga chiqqanligini taʼkidlaydi. Iqtisodchi olim N.Toʻxliyev karvon ilk bor yoʻlga chiqqan vaqtga aniqlik kiritib, savdo-sotiq mil.avv. 126-yilda boshlanganligini qayd qiladi. Buyuk ipak yoʻli boʻylab quruqlik orqali yuruvchi savdogarlar qaysi yoʻldan foydalanmasin, Oʻrta Osiyo, hozirgi Oʻzbekiston shaharlari hududidan oʻtgan. Barcha yoʻllar tutashgan nuqtada biz yashab turgan mintqa joylashgan edi. Moʻgʻulistondan oʻtgan yoʻl esa Marv va Amul orqali Urganchdan oʻtgan. Xorazmdan quyi Volgaga boradigan yoʻl esa Xorazmshohlar yoʻli deb atalgan. Xullas, Oʻrta Osiyo Janub va Shimol, Yaqin va Oʻrta Sharqqa oʻtadigan yoʻllar tutashgan joyda boʻlgan.² Oʻrta Osiyo orqali Xitoydan gʻarbga oʻtadigan savdo karvon yoʻllari doimo sugʻdiylar nazorati ostida edi. Sugʻdlik savdogarlar oʻzlarining bu yoʻldagi

¹ Bahodir Eshov "Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi".

² Bahodir Eshov "Qadimgi Oʻrta Osiyo shaharlari tarixi". Toshkent -2006.



hukmronliklarini saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Yenisey sohillariga qadar bo'lgan hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shamsiy viloyatida, Dunxuan shahrida III–IV asrlarda ming xo'jalikdan iborat sug'd qishloqlari qad ko'targan. Sug'dlar IV–V asrlarda tarkib topgan va Turfondan Shimoliy Mo'g'ulistonga tomon ketgan uyg'ur yo'li, VIII asrda qaror topgan va Sharqiy Turkistondan Jung'oriya orqali Xaqasiyaga borib yetgan qirg'iz yo'lidan ham foydalanganlar. Bu yo'llar ichida Dunhuandan shimoli-g'arbga ketgan ipak yo'li alohida ahamiyatga ega edi. Bu yo'lning ahamiyati Xitoy hukumatiga Xan sulolasining hukmdori U-di tomonidan Sharqiy Turkiston xunmlariga qarshi ittifoq izlab Qang'uyga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi, saroy zobiti Chjan Syan orqali ma'lum bo'lgan. Bungacha Xitoy G'arbiy meridianal yo'lidan foydalanilgan. Bu yo'l orqali Xo'tan nefriti Xitoyning markaziy viloyatlariga miloddan avvalgi II mingyillikdan kela boshlagan edi. Nefrit savdosida yuechji qabila ittifoqi asosiy vositachi bo'lgan. Xan sulolasi davrida ana shu nefrit savdo yo'li orqali Sharqiy Turkistonga ko'plab ipak matolari borardi. Xitoy bu yo'lni iqtisodiy zaruriyat tufayli qo'lga kiritishga harakat qildi. Biroq miloddan avvalgi 165-yilda bu yo'l xunmlar qo'lga o'tdi. Ular bu yo'l uchun kurashib yuechjilarni Xotan, Turfon, Qashg'ar vohasidan g'arbga siqib chiqardilar. Xunmlar, hatto Shimoliy Xitoy yerlariga ham da'vogarlik qildilar. Natijada Xitoy o'sha davrning qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Qang'uyga yaqinlashishga majbur bo'ldi. Shu boisdan ham Xitoy hukmdori U-di Chjan Syanni miloddan avvalgi II asrda Qang'uyga yuborgan. Ammo yo'lda xunmlar qo'lida 10 yil asirlikda bo'lib, Qang'uyga yetib borgan bo'lsa-da, o'z maqsadiga yeta olmagan. Ipaklar Xitoydan arzon narxlarda O'rta Osiyoga sug'd savdogarlari orqali olib kelingan. Xususan samarqandlik sug'dlar xalqaro savdoda ustasi farang bo'lganlar. Qadim zamonlarda savdogarlar xalq orasida eng nufuzli, obro'li, mo'tabar insonlar edilar. Chunki ular faqat mol olib, mol sotuvchi va undan foyda oluvchi jamiyatni boy qatlamigina emas edilar, balki uzoq safarlarga katta savdo karvonlari bilan boruvchi savdogar elchilar, ziyo va madaniyat, yangiliklar tarqatuvchilar, u yoki bu hududdan yangi joylarga ilg'or xo'jalik ixtirolarini olib boruvchi nufuzli kishilar ham bo'lganlar. Ayni vaqtda o'zga



mamlakatlarning urf-odatları, kuchi va qudrati, hududiy joylashishi, tabiyati va davlatni boshqarish tizimini chuqur bilishda o'ta hushyor davlat ayg'oqchilari ham bo'lganlar.³ Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda III–VII asrlarda O'rta Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan "Ipak yo'li" ning nazorati sug'dlarning qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asr o'rtalariga kelib, "Ipak yo'li" ning g'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tadi. Hozirda "Buyuk ipak yo'li" an'alarini tiklash uchun keng harakat boshlangan. 1987-yili YUNESKO madaniy taraqqiyot bo'yicha BMTning umumjahon dekadasi doirasida "Ipak yo'li — muloqot yo'li" xalqaro dasturi qabul qilindi. Dastur O'rta Osiyo xalqlari boy madaniy tarixlarini keng qamrovda tadqiq etishni nazarda tutadi. Lekin uning asosiy maqsadi — Sharq bilan G'arb o'rtasida yanada mustahkamroq madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, ushbu buyuk qit'alarda yashovchi ko'p sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat. 30 dan ortiq xalqaro ilmiy konferensiya va seminarlar o'tkazildi. Ana shunday anjuman 1990-yil oktabrida Samarqandda, 1996-yil fevralida Buxoroda o'tkazildi. "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab birgalikda xalqaro ekspeditsiyalar uyushtirildi, kinof ilmlar yaratildi, kitoblar, risolalar va maqolalar chop etildi, ba'zi arxeologik va me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Hindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shrilanka, Yaponiyada "Buyuk ipak yo'li" ni o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy institutlar ochildi. Ulardan biri Samarqand shahridagi Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro institutidir.⁴

Xulosa. Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo shaharlarining taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutgan. Bu yo'l orqali mintaq shaharlarida savdo, ilm-fan, madaniyat va texnologiya almashinuvi kuchaydi. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlar xalqaro savdo markazlariga aylanib, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirdi. Shuningdek, Buyuk Ipak yo'li

³ R. SHamsutdinov, Sh. Karimov Vatan tarixi. "SHARQ" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tahririyati Toshkent – 2010.

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat milliy nashriyoti. Toshkent, 2001. 320-321- betlar.



orqali Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasida o'zaro madaniy hamkorlik vujudga keldi. Bu jarayon mintaqa shaharlarining o'ziga xos madaniy, ilmiy va iqtisodiy yuksalishiga zamin yaratdi. Shu tariqa, Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyoning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini mustahkamlab, uni global integratsiyaning muhim bo'g'iniga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahodir Eshov "O'zbekiston davlatchiligi tarixi".
2. Bahodir Eshov "Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi". Toshkent -2006.
3. R. SHamsutdinov, Sh. Karimov Vatan tarixi. "SHARQ" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tahririyati Toshkent – 2010.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat milliy nashriyoti. Toshkent, 2001. 320-321- betlar.
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.



10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.